

BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI POLITEXNIK VA PEDAGOGIK IJODKORLIKKA TAYYORLASH TIZIMI VA JARAYONI

Xo'jamberdi Tog'ayev – Xalqaro Antigue World Ilmiy Akademiyasi doktori, akademik. Akademiya “Ixtirolar markazi” direktori. Tarix, biologiya, fizika - matematika, texnika fanlari bo'yicha qit'alararo mutafakkir (SOPHIST). London (Buyuk Britaniya) “Xalqaro Akademiyasi va Oliy ta'lim”da “Butun Dunyo qit'alararo, mintaqalararo, millatlararo ilmiy ishlar tahlili” bo'yicha ekspert a'zosi. Jizzax Davlat pedagogika instuti “Ixtirochilar” ilmiy to'garagi rahbari.

Alqorov Qodir Xolmatovich – A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lim kafedrasida o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston.

e-mail:togaev@jspi.uz

***Аннотация:** Мақоллада бо'лажак texnologik ta'limi o'qituvchilarini politexnik va pedagogik ijodkorlikka tayyorlash tizimi va jarayoni haqidagi fikrlar bayon qilinadi.*

***Калит со'злар:** texnologik, ta'lim, tizim, jarayon, prinsip, vazifa, ilmiy markaz, elementlar, mahorat.*

***Аннотация:** В статье излагается мысли о системе и процесса политехнической и педагогической подготовки будущих учителей технологического обучения.*

***Ключевые слова:** технологический, образование, система, процесс, принцип, задание, научный центр, элементы, мастерство.*

***Annotation:** The article discusses the system and process of preparing future technology education teachers for polytechnic and pedagogical creativity.*

***Key words:** technology, education, system, process, principle, task, research center, elements, skills*

Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilarini kasbga tayyorlash tizimi bu o'quvchilarga texnologik ta'lim berish uchun zarur politexnik, psixologik va pedagogik mahoratli mutaxassislarni tayyorlashga mo'ljallangan o'zaro aloqador tizim elementlaridan iborat tashkiliy-yaxlit ta'lim – tarbiyaviy majmua hisoblanadi. Bu tizimdagi elementlar tavsifiga ko'ra nisbiy tushuncha bo'lib, ba'zi xususiy hollarda har bir elementni tizim deb ham qarash mumkin. Bu tayyorlash tizimida o'quvchilarning texnikaviy ijodkorligi muhim element hisoblanadi. Ammo texnikaviy ijodkorlikni rivojlantirishdagi masalalarni hal qilishda u alohida tizim sifatida olinadi. Shu ma'noda bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining politexnik ijodkorlik tizimini umumiy holda o'quvchilarni texnik ijodkorlikka tayyorlash elementlari yig'indisi deb qarash mumkin. Unga aniqroq ta'rif beradigan bo'lsak, texnologik ta'lim o'qituvchilari politexnik ijodkorlik tizimi bu –

institut kengashi (rektorat, kasaba uyushmasi, kamolot ijtimoiy yoshlar harakati, iqtidorli talabalar bilan ishlash ilmiy markazi, ilmiy ishlar bo'yicha prorektor, fakultetlar, kafedralar va boshqa o'quv jamoat tashkilotlari)ning talabalarni aniq texnik va psixologik-pedagogik masalalarni yechish bo'yicha turli ijodkorlik ishlariga jalb qilish, bo'lajak mutaxassislarining pedagogik, texnologik, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va boshqa sohalariga oid faoliyatiga har tomonlama yordam berish, texnik ijodkorlik ishlari natijalari bo'yicha ko'rik tanlov, ko'rgazma va boshqa konferensiyalar tashkil qilish, otaliqqa olingan maktablarda texnika to'garaklarini ochish va talabalarning ijodkorlik ishlariga yordam berish; ijodkorlik ishlarini qo'llab – quvvatlash; moliyaviy, moddiy –texnik ta'minot masalalarini rejalashtirish va ularni hal qilish, talabalarning o'zlari va jamiyat uchun foydali kasbiy va ijtimoiy sifatlarni anglash jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy yoki boshqariladigan faoliyatdir deyish mumkin.

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini politexnik – pedagogik ijodkorlikka tayyorlash tizimi o'quvchilarni kamol toptirishning usul, yo'nalish, mezon va uzviy ketma-ketlik bosqichlarini ifodalovchi tamoyillarning tarkibiy-tashkiliy elementlari yig'indisi bo'lib, ular o'zida ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ilg'or pedagogik tavsifidagi jarayonlarni mujassam etadi.

1- jadval.

| T/r | Tamoyillar | Vazifalar tavsifi |
|------------|---|--|
| 1 | Ilmiy –texnik va pedagogik-psixologik integratsiya | Bo'lajak mutaxassislikka oid malakaviy tavsifnomalar mazmunini aniqlash va ular o'rtasidagi zaruriy o'zaro aloqadorlikni ta'minlash |
| 2 | Texnik ijodkorlik va ilg'or pedagogik faoliyatiga tayyorlashning qat'iy ketma-ketligini ta'minlash | Texnik ijodkorlik elementlarining oddiy referatdan tortib, bitiruv malakaviy ishigacha ketma-ketligi, mazmuni, o'quv tashkiliy shakllari, ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida qilinadigan ishlarning istiqboldagi va joriy yil uchun dastur hamda rejalarni ishlab chiqish |
| 3 | Texnologik va pedagogik yo'nalishlar bo'yicha mos holda texnik va pedagogik ijodkorlikka tayyorlashning o'zaro mutanosibliigi va muvozanatini saqlash | Har bir yo'nalish bo'yicha ijodkorlik vazifalarini bajarishning imkoniyatlari (mehnat hajmi, vaqt fondi, murakkabligi va h.k lar) ni aniqlash va ularni optimal (maqbul) taqsimlash |
| 4 | Texnik va pedagogik ijodkorlikning maqsad va mezonlari mosligini o'rganish | Har qanday ijodkorlikdagi singari texnik ijodkorlikka tayyorlashning maqsadi va unga nechog'lik erishilganligini baholash mezonlari (funktional, iqtisodiy, ekologik, pedagogik va h.k.)ni ishlab chiqish. |

Bu tizimda tashkiliy tarkibni shakllantirish muhim hisoblanadi. Chunki u ilg'or pedagogik texnologiyalar va yangi turdagi texnikani yaratish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish tamoyillaridan samarali foydalanishni o'zida ifodalashi lozim. Bu tamoyillarni qo'llash texnologik ta'lim o'qituvchilarini texnik ijodkorlikka tayyorlashning optimal (maqbul) tarkibiy tuzilmasini yaratish (ishlab chiqish) bilan bog'liq asosiy vazifalar ketma – ketligini belgilab olish imkonini beradi.

Mazkur 1-jadvalda texnologik ta'lim o'qituvchilarini texnik ijodkorlikka tayyorlash tizimining tashkiliy tamoyillari va ularga mos tarkibiy tuzilmalar vazifalarining qisqacha tavsifi keltirilgan.

Mazkur tizim tamoyillari va vazifalari tavsifi asosida texnologik ta'lim o'qituvchilarini texnik ijodkorlikka tayyorlash jarayonining pedagogik loyahasini tayyorlash mumkin. Bu ishning texnologik ta'lim yo'nalishidagi maqsadi o'quvchilarni maket, model, tajriba namunasini tayyorlash, texnikalarni takomillashtirish faoliyatiga jalb qilish bo'lsa, pedagogik kasbiy yo'nalishdagi vazifasi maktablarda texnika va texnologiyalar bilan bog'liq fanlarda ta'lim beradigan o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishdan iborat.

Yuqoridagi maqsadlarga mos holda bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining texnik ijodkorlik va pedagogik mahoratini oshirishga tayyorlash jarayoni quyidagicha bo'lishi mumkin.

2-jadval.

| Tasnif | Texnologik ta'lim o'qituvchilarini texnik va pedagogik ijodkorlikka tayyorlash jarayoni | | | | |
|--|---|--|--|--|---|
| Mehnat faoliyati turi bo'yicha a) texnik ijodkorlik | Tadqiqot-chilik | Konstruktorlik | Texnika, texnologiya, ixtirochilik | Tashkiliy | Iqtisodiy |
| b) pedagogik | Tadqiqot xarakteridagi referat yozish (uslub) | Tadqiqot xarakteridagi laboratoriya ishlarini bajarish (uslub) | Tadqiqot xarakteridagi kurs ishlarini bajarish (uslub) | Tadqiqot xarakteridagi bitiruv malakaviy ishlarni bajarish (uslub) | Tadqiqot natijalarini matbuotga taqdim qilish |
| v) talabalar o'quv vaqti bo'yicha | 1-bosqich | 2-bosqich | 3-bosqich | 4-bosqich | Bakalavrdan magistraturaga |
| g) funksional belgisi bo'yicha | Pedagogik va texnologik tadqiqot | Pedagogik va eksperimental tadqiqot | Sof texnik ijodkorlik tadqiqoti | Sof pedagogik natija | Malakali texnologik ta'lim o'qituvchisi |

Texnologik ta'lim o'qituvchilarini texnik ijodkorlikka va pedagogik kasbiga tayyorlash jarayonida qo'yilgan maqsadni to'g'ri aniqlash muhim hisoblanadi. Bu o'z ichiga ijodkorlik ishini boshlashdan to'g'ri tugallanishigacha bo'lgan bosqichlarni amalga oshirish lozim bo'lgan operatsiya, metodika, nazorat, tuzatish kiritish va boshqarish kabi o'zaro bog'liq ko'plab elementlarni oladi. Maqsadning amalga oshishida esa ishlarni ilmiy asosda tashkillashtirish jarayoni va ko'plab sharoit yaratish muhim ro'l o'ynaydi. Bu esa har bir ta'lim muassasasidagi ishlarni uning o'ziga xos xususiyatlari ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib amalga oshirishni taqozo etadi.

Tahlillarimizga ko'ra bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini texnik ijodkorlikka tayyorlashga bunday tizimli yondashish jarayoni ularning ishga borganda yaxshi mehnat sharoitiga tez ko'nikishi, yangi texnika va texnologiyalarni keng tadbiq qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bitiruvchilarning ish faoliyati bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili ham o'quv davrida texnik ijodkorlik bilan shug'ullangan talabalar mustaqil ishlashga yaxshi tayyor bo'lib, ishga oson kirishib ketishlari va ish joylarida to'garaklar, texnik ijodkorlik ishlari, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda ham boshqalardan keskin ajralib turishini ko'rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mazkur bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarning texnikaviy ijodkorligini rivojlantirish va ularni bu tizimli va jarayoni ilmiylik, nazariy bilimlar va amaliy ko'nikma, malakalari o'zlashtirishning ongliligi, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, ko'rsatmalilik tamoyillari bilan chabarchas bog'langanligi, chuqur kasbiy tarbiyaga yo'naltirilganligi bilan umumiy kasbiy ta'limning ajralmas qismi hisoblanadi va ularning maktablarga ishga borganda o'quvchilar bilimlarini texnika va texnologiyalar sohasidagi amaliy masalalarni hal etishga qo'llay olish qobiliyatini o'stirishlarida muhim ro'l o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tog'ayev X. va b. О методической работы по политехнической подготовки учителей. Международный научно-практическая конференция. Астраханская область, Россия.1678-1680. 12-13 сентябрь.

2. Tog'ayev X, O'rozov B.X, Yusupov K. Qishloq maktablarida integratsiyalab o'qitishning imkoniyatlari. T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy – tadqiqot instituti konferensiya materiallari to'plami. 25-26 may. 2007-yil.

3. Tog'ayev X, Tolipov O'.Q. Sinergetika va uni ta'lim tizimiga tadbiq etish. Yuqoridagi to'plam, 75-77 betlar, 25-26 may, 2007-yil.

4. Tog'ayev X. Ismoilov T., Qosimov U. Iqtidorlilik tarixiy – ijtimoiy taraqqiyot mahsuli sifatida. "UAJBNT" markazi maxsus to'plami, Toshkent 2003-yil 108-112 betlar.

5. Тагаев, Х. (2015). Формула Тагаева по определению гидродинамического сопротивления воды. In *target and procedural aspects of scientific and technical progress at the beginning of the xxi century* (pp. 32-37).

6. Исмаилов, Т. Д., Тагаев, Х., Низамов, Ш. Ш., & Суюнов, У. Д. (2019). Педагогические основы совершенствования творческой личности студентов. *Поволжский педагогический поиск*, (2), 104-111.

7. Тагаев, Х., Алкаров, К. Х., Каримов, О. О., & Юлдашев, М. (2019). Педагогические основы обеспечения стабильности роста и развития системы научно-технического творчества студентов (Модель "Руководитель-Участник-Творческая деятельность"). *Поволжский педагогический поиск*, (2), 112-119.

8. Тагаев, Х. (2017). Биологические особенности тростника обыкновенного и меры борьбы с ним. In *Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономическое обеспечение сельскохозяйственного производства* (pp. 1238-1242).

9. Тагаев, Х. (2017). Важнейшее не разработанное агротехническое требование по использованию естественной солнечной радиации по видам растений в мировом земледелии. In *современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования* (pp. 1086-1092).

10. Тагаев, Х., Исмаилов, Т. Д., Юсупов, К. Я., & Каримов, О. О. (2017). Рациональное использование биофизических и биохимических эффектов – важный фактор повышения экологической и экономической эффективности в теплицах. In *современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования* (pp. 1092-1094).

11. Исмаилов, Т. Д., Тагаев, Х., Юсупов, К. Я., & Эргашев, Х. (2016). О методической работы по политехнической подготовки учителей. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1678-1681).

12. Тагаев, Х., Алкаров, К. Х., Артикова, О. Ш., & Мамаджанова, К. А. (2016). Патент-как ядро и стратегический шаг вперед к новым высотам технической и инженерной мысли. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1773-1776).

13. Тагаев, Х., Убайдуллаев, С., Алкаров, К. Х., & Оришев, Ж. Б. (2016). Повышение патентных знаний в процессе обучения. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1776-1780).

14. Исмаилов, Т. Д., Тагаев, Х., Низомов, Ш. Ш., & Юсупов, М. М. (2015). Формирование профессиональных умений и навыков будущих учителей труда. *Н-34 Научно-практические основы устойчивого ведения аграрного*, 217.

15. Тагаев, Х., & Эшанкулов, Х. М. (2015). Рациональное управление научно-исследовательской работой студентов. in *interpersonal mechanisms of knowledge and experience transfer in the process of public relations development* (pp. 40-43).

16. Тагаев, Х. И. Т., & Исмаилов, Т. (1992). Совершенствование профориентационной подготовки в условиях обучения без отрыва от производства «Проблемы подготовки специалистов по профориентации в педвузе» Материалы Международная научно-практическая конференции.

17. Тагаев, Х. (2007). Механический способ уничтожения тростника обыкновенного в рисовых чеках. Материалы Международной научно-практической конференции, часть 2, Ташкент-2007г.